

Har bir xodim “Halollik vaksinasi” tamoyili asosida faoliyati yuritishi lozim

Davlat soliq xizmati organlarida korrupsiya va soha xodimlarining obro‘sigaputur yetkazuvchi har qanday illatlarning oldini olish, xodimlarni vazifa va burchini vijdonan ado etishi hamda doimo ogoh bo‘lishi maqsadida, joriy yil 16-iyun kuni Yirik soliq to‘lovchilar bo‘yicha hududlararo davlat soliq inspeksiyasi xodimlari o‘rtasida *“Har bir xodim “Halollik vaksinasi” tamoyili asosida faoliyati yuritishi lozim”* mavzusida profilaktik yig‘ilish o‘tkazildi.

Yig‘ilishda O‘zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi, Davlat xavfsizlik xizmati, Bosh prokuratura hamda O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi mas’ul vakillari, ommaviy axborot vositalari, shuningdek yosh xodimlarning oila a‘zolari (ota-onalari) ishtirok etdi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Korrupsiyaga qarshi kurashish ishlarining samaradorligini reyting baholash tizimini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2022-yil 12-yanvardagi PQ-81-son qarori talablariga muvofiq Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi tomonidan e‘lon qilingan davlat organlari va tashkilotlarida korrupsiyaga qarshi kurashish ishlari samaradorligining 3 ta, ya’ni “yaxshi”, “qoniqarli” va “qoniqarsiz” guruhlariga toifalangan reytingida Davlat soliq qo‘mitasi faoliyati “yaxshi” deb topilgan 1-guruhdan o‘rin olgan.

Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi bilan hamkorlikda ishlarni to‘g‘ri tashkil etilib, davlat soliq xizmati organlarida korrupsiyaga qarshi kurashish borasida amalga oshirilgan ishlar, tahlillar, erishilgan natijalar to‘g‘risidagi axborotlarni “E-anticor.uz” platformasiga o‘z vaqtida, to‘liq va sifatli kiritilishi natijasida erishildi.